



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### OTLI BIRIKMALARDA ICHKI SINTAKSIS MUNOSABATLAR TADQIQI ( HOZIRGI O'ZBEK TILI MISOLIDA)

**Qayumova Gulsanam Sadriiddin qizi**

*Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

**Annotatsiya:**

*Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilidagi otli birikmalarning struktur-semantik xususiyatlari hamda ulardagi ichki sintaktik munosabatlar tahlil qilinadi. Otli birikmalar tarkibidagi hokim va tobe komponentlar o'rtasidagi munosabatlar, bitishuv, moslashuv va boshqaruv aloqalarining namoyon bo'lish xususiyatlari yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *otli birikma, so'z birikmasi, sintaktik munosabat, hokim komponent, tobe komponent, bitishuv, moslashuv, boshqaruv.*

### ИССЛЕДОВАНИЕ ВНУТРЕННИХ ОТНОШЕНИЙ В ИМЕННЫХ СЛОВСОЧЕТАНИЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА)

**Каюмова Гульсанам Садриддин кизи**

*Студентка Самаркандского государственного института иностранных языков*

**Абстрактный:**

*В данной статье анализируются структурно-семантические особенности именных словосочетаний современного узбекского языка, а также внутренние синтаксические отношения, проявляющиеся в их составе. Освещаются особенности отношений между главным и зависимым компонентами именных словосочетаний, а также специфика проявления таких видов синтаксической связи, как примыкание, согласование и управление.*

**Ключевые слова:** *именное словосочетание, словосочетание, синтаксическое отношение, главный компонент, зависимый компонент, примыкание, согласование, управление.*

### A STUDY OF INTERNAL RELATIONS IN NOMINAL WORD COMBINATIONS (BASED ON THE MODERN UZBEK LANGUAGE)

**Kayumova Gulsanam Sadriiddin qizi**

*Samarkand State Institute of Foreign Languages*





**Abstract.**

*This article analyzes the structural-semantic features of nominal word combinations in modern Uzbek and the internal syntactic relations manifested within them. The study highlights the relationships between the head and dependent components of nominal word combinations and examines the specific features of syntactic connections such as adjacency, agreement, and government.*

**Keywords:** *nominal word combination, word combination, syntactic relation, head component, dependent component, adjacency, agreement, government.*

Tilning sintaktik tizimida soʻz birikmalari muhim oʻrin tutadi. Soʻz birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzlarning maʼno va grammatik jihatdan bogʻlanishidan hosil boʻladigan sintaktik birlik hisoblanadi. Oʻtli birikmalar esa hokim komponenti ot yoki oʻtlashgan soʻz bilan ifodalangan birikmalar sifatida sintaktik qurilishda alohida mavqega ega. Ular predmet va hodisalarning belgi, miqdor, tegishlilik hamda izohlash munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Akademik V.V. Vinogradov soʻz birikmalarining grammatik mohiyati va sintaktik tabiatini oʻrganish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri ekanligini taʼkidlaydi

Oʻtli birikmalar tarkiban hokim va tobe komponentlardan tashkil topadi. Hokim komponent odatda ot bilan ifodalansa, tobe komponent sifat, son, olmosh, sifat-dosh yoki boshqa oʻtlar orqali ifodalanadi. Masalan, katta uy, besh talaba, mening kitobim, talabaniing daftari kabi birikmalarda hokim komponent predmetni bildiradi, tobe komponent esa uning maʼnosini aniqlashtiradi. Oʻtli birikmalar sodda va murakkab tuzilishga ega boʻlishi mumkin. Sodda birikmalar ikki komponentdan tashkil topsa, murakkab birikmalarda aniqlovchilar soni ortadi va maʼno yanada konkretlashadi.

Soʻz birikmasining asosiy belgilaridan biri hokim-tobelik munosabatidir. Hokim komponent sintaktik markaz vazifasini bajaradi, tobe komponent esa uning maʼnosini toʻldiradi yoki izohlaydi. Masalan, chiroyli qiz birikmasida qiz hokim, chiroyli tobe komponent hisoblanadi. N. Mahmudov va A. Nurmonovlarning fikricha, soʻz birikmasida tobe unsur hokim unsurga boʻysunib, uning maʼnosini aniqlashtirish vazifasini bajaradi<sup>45</sup>

Oʻtli birikmalarda sintaktik munosabatlar asosan bitishuv, moslashuv va boshqaruv usullari orqali yuzaga chiqadi. Bitishuv aloqasida komponentlar qoʻshimchasiz, maʼno va tartib asosida bogʻlanadi: oq gul, temir darvoza, qora koʻz. Bunday birikmalarda grammatik koʻrsatkichlar ishtirok etmaydi, bogʻlanish semantik moslik orqali yuzaga keladi. Moslashuv aloqasi qaratqich va egalik qoʻshimchalari vositasida hosil boʻladi. Talabaniing daftari, mening kitobim, bolalarning quvonchi kabi birikmalarda qaratqich va qaralmish

---

<sup>45</sup>Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Илм зиё, 2011. – Б. 12–14.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'zaro grammatik jihatdan moslashgan bo'ladi. Ushbu aloqa turi egalik va tegishlilik munosabatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv aloqasida esa hokim komponent tobe komponentning muayyan grammatik shaklda kelishini talab qiladi. Kitobni o'qish, universitetda o'qish, o'quvchilar bilan suhbat kabi birliklarda boshqaruv munosabati kuzatiladi. Bu turdagi bog'lanish otli birikmalarda kamroq uchrasa-da, sintaktik munosabatlarning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Otli birikmalar semantik jihatdan ham rang-barangdir. Ular belgi munosabatini (yashil barg, katta bino), egalik munosabatini (uning kitobi, o'quvchining daftari), qism-butun munosabatini (daraxtning shoxi, uyning tomi), material munosabatini (temir darvoza, oltin uzuk) hamda makon va zamon munosabatlarini (shahar markazi, yozgi ta'til) ifodalaydi. Shuning uchun otli birikmalar nafaqat sintaktik, balki semantik jihatdan ham til tizimining muhim birliklari hisoblanadi.

Otli birikmalar o'zbek tilida so'z birikmalarining muhim turlaridan biri bo'lib, ular hokim bo'lagi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalangan sintaktik birliklardir. Mazkur birikmalar nutqda predmet, hodisa yoki tushunchalarni aniqlash, izohlash va kengaytirish vazifasini bajaradi. Otli birikmalarning asosiy xususiyatlari ularning struktur (tuzilish) va semantik (ma'no) jihatlarining o'zaro uyg'unligida namoyon bo'ladi. Otli birikmalarning struktur xususiyatlari Otli birikmalar kamida ikki mustaqil so'zning tobelanish asosida birikishidan hosil bo'ladi. Bu yerda hokim komponent ot bo'lib, tobe komponentlar unga turli grammatik vositalar orqali bog'lanadi. Birinchidan, otli birikmalar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga ajratiladi. Sodda otli birikmalar ikki komponentdan iborat bo'lib (katta uy, yangi daftar), murakkab otli birikmalar esa uch yoki undan ortiq komponentni o'z ichiga oladi (qiziqarli badiiy asar, yangi qurilgan zamonaviy bino). Murakkab tuzilmalarda aniqlovchi elementlar ko'paygan sari mazmun aniqlashadi va kengayadi. Ikkinchidan, otli birikmalar bog'lanish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: Moslashuvli birikmalar – tobe bo'lak hokim bo'lakka egalik va kelishik qo'shimchalari orqali bog'lanadi (talabning kitobi, mening do'stim). Bu turdagi birikmalar egalik va tegishlilik ma'nolarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Bitishuvli birikmalar – komponentlar o'zaro qo'shimchasiz, yonma-yon joylashish orqali birikadi (temir eshik, oq gul, tez yordam mashinasi). Bunda grammatik vositalar ishtirok etmaydi, munosabat kontekst orqali anglashiladi. Boshqaruvli birikmalar – hokim so'z tobe bo'lakdan ma'lum kelishik shaklini talab qiladi. Bu tur otli birikmalarda kamroq uchrasa-da, ayrim holatlarda kuzatiladi. Uchinchidan, otli birikmalar tarkibida turli so'z turkumlari aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Jumladan, sifat (chiroyli qiz), son (ikki talaba), olmosh (mening kitobim), sifatdosh (kelgan mehmon) kabi birliklar o'zini aniqlab, uning mazmunini boyitadi. Otli birikmalarning semantik xususiyatlari otli birikmalar turli semantik munosabatlarni ifodalash xususiyatiga ega. Bu munosabatlar orqali predmet va hodisalarning o'zaro aloqasi aniqlanadi. Birinchi navbatda, otli birikmalar belgi (atributiv) munosabatni ifodalaydi. Bunda aniqlovchi predmetning rangini, hajmini, xususiyatini bildiradi (yashil barg, katta bino, aqlli o'quvchi). Ikkinchidan, ular egalik munosabatini ifodalashi mumkin (uning kitobi, o'quvchining daftari). Bu holatda predmetning kimga yoki





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



nimaga tegishli ekani ko'rsatiladi. Uchinchidan, o'tli birikmalar qism-butun munosabatini bildiradi (daraxtning shoxi, uying tomi). Bu turdagi birikmalar predmetning tarkibiy qismlarini ifodalashga xizmat qiladi. To'rtinchidan, material yoki kelib chiqish munosabati ham ifodalanadi (temir darvoza, oltin uzuk), bunda predmetning nimadan yasalganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, o'tli birikmalar makon va zamon munosabatlarini (shahar markazi, yozgi ta'til), hamda maqsad va vazifa munosabatlarini (ish xonasi, o'quv quroli) ifodalash imkoniyatiga ega. Struktur va semantikaning o'zaro bog'liqligi O'tli birikmalarda struktur shakl va semantik mazmun o'zaro chambarchas bog'liqdir. Birikmaning tuzilish turi uning ma'no xususiyatlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, moslashuvli birikmalar ko'proq egalik va aniqlik ma'nolarini ifodalasa, bitishuvli birikmalar asosan belgi va sifatlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, komponentlar sonining ortishi bilan birikmaning semantik aniqligi ham kuchayadi. Masalan, kitob so'zi umumiy ma'noni bildirsa, yangi kitob aniqroq tushunchani ifodalaydi, qiziqarli yangi kitob esa yanada batafsil ma'no kasb etadi. O'tli birikmalar o'zbek tilining sintaktik tizimida muhim o'rin egallaydi. Ular struktur jihatdan turli shakllarda namoyon bo'lib, semantik jihatdan rang-barang munosabatlarni ifodalaydi. Ushbu birikmalar nutqning aniqligi, ifodaliligi va boyligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli o'tli birikmalarni struktur-semantik jihatdan o'rganish tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri sanaladi.<sup>46</sup>

Hozirgi davr talablari ona tili ta'limini nafaqat tashkiliy jihatdan, balki mazmunan ham yangicha yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni zarur etadi. Yangilangan ta'lim konsepsiyasida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda aniq, ravon va mantiqan izchil ifoda eta olish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Shu sababli og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, ularni o'zaro uyg'un holda takomillashtirish ona tili o'qitish jarayonining markaziy yo'nalishiga aylanmoqda. Ma'lumki, grammatikaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sintaksis til birliklarining o'zaro bog'lanishi, ularning nutq jarayonida tutgan o'rni va vazifalarini o'rganadi. Sintaksisning asosiy o'rganish obyektlaridan biri – so'z birikmasidir. So'z birikmasi nutq va tafakkur jarayonida ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlarning ma'no, grammatik va ohang jihatdan o'zaro bog'lanishidan hosil bo'lgan birlikdir. U yaxlit mazmunni ifodalaydi, ammo tarkiban qismlarga ajralish xususiyatiga ega. Tilning eng muhim ijtimoiy vazifasiinson fikrini shakllantirish, uni aniq va tushunarli ifoda etish hamda muloqot vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Til turli birliklardan tashkil topgan murakkab tizim bo'lib, har bir birlik o'ziga xos vazifani bajaradi. Lingvistik tahlil jarayonida bu birliklar alohida ajratilib, ularning xususiyatlari chuqur o'rganiladi. Aynan so'zlarning muayyan qoidalar asosida birikishi natijasida so'z birikmalari va gaplar yuzaga keladi. Sintaksis odatda

<sup>46</sup> Turniyozov N.Q. O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish. – Samarqand.





ikki yirik qismga ajratiladi: soʻz birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi. Har ikkisi ham nutqning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Teng bogʻlanishda soʻzlar bir-biriga boʻysunmaydi, ular teng huquqli holda sanash ohangi yoki teng bogʻlovchilar yordamida birikadi. Masalan, “erkaklar va ayollar” birikmasida har ikkala soʻz teng munosabatda turadi. Bunday holatda soʻz qoʻshilmasi hosil boʻladi.

Tobe bogʻlanishda esa bir soʻz ikkinchisiga boʻysunadi va uni izohlab keladi. Bu yerda bir soʻz hokim, ikkinchisi esa tobe hisoblanadi. Hokim soʻz – asosiy maʼnoni bildiruvchi birlik, tobe soʻz esa uni aniqlashtiruvchi yoki toʻldiruvchi vazifani bajaradi. Masalan, “shirin olma” birikmasida “olma” hokim, “shirin” esa tobe soʻzdir. Soʻroq odatda hokim soʻzga beriladi va javob tobe soʻz orqali aniqlanadi. Hokim soʻzning qanday turkum bilan ifodalanishiga qarab soʻz birikmalari ikki asosiy turga boʻlinadi: otli birikmalar va feʼlli birikmalar. Agar hokim soʻz ot yoki otlashgan soʻz bilan ifodalansa, bunday birikma otli birikma deyiladi (masalan, baland bino, tez yugurish). Agar hokim soʻz feʼl yoki uning shakllari bilan ifodalansa, feʼlli birikma yuzaga keladi (masalan, kitobni oʻqidi, tez yugurdi). Tilshunos olimlar soʻz va soʻz birikmasi masalasida turlicha qarashlarni ilgari surganlar. Jumladan, Ferdinand de Sossyur soʻz tushunchasini tilning konkret birligi sifatida qarash toʻgʻri emasligini taʼkidlaydi. Bu fikr til birliklarini chuqurroq tahlil qilish zarurligini koʻrsatadi. Soʻz va soʻz birikmasi oʻrtasida oʻxshashlik boʻlsa-da, ular farqli birliklardir. Soʻz umumiy tushunchani ifodalaydi, soʻz birikmasi esa shu tushunchani aniqlashtirib, konkretlashtirib beradi. Masalan, “oʻquvchi” umumiy tushuncha boʻlsa, “aʼlochi oʻquvchi” aniqroq maʼnoni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, otli birikmalar oʻzbek tilining sintaktik qurilishida alohida oʻrin tutadi. Ularning ichki tuzilishi hokim va tobe komponentlar oʻrtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Bitishuv, moslashuv va boshqaruv aloqalari mazkur munosabatlarning grammatik ifodasi boʻlib xizmat qiladi. Otli birikmalarni oʻrganish tilning ichki qonuniyatlarini ochib berish, sintaktik birliklarning funksional imkoniyatlarini aniqlash hamda nutqning ifoda imkoniyatlarini kengroq yoritishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – М.: Высшая школа, 1972. – С. 13–15.
2. Махмудов Н., Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Илм зиё, 2011. – Б. 12–14.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002.
4. М. К. Шарипов. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари синтаксиси масаласи. – Тошкент: Ўзбекистон ССР, Фан нашриёти, 1978.
5. Б. Мадалиев. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма сўзлар. – Тошкент: Фан нашриёти, 1973.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



6. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
7. Е. В. Кротович. Словосочетание как строительный материал предложения // Вопросы славянского языкознания. Кн. 4. Изд-во Львовского университета, 1955.

